

## TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Abdullayev Jahongir Ro'zmatovich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kreativlikning mohiyati, kreativlik atamasi, kreativlik sifatlarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, ta'lim oluvchilarni faolligi, bundan tashqari ta'lim oluvchilarda tanqidiy va kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, kreativlikni rivojlantirish bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kreativlik, ta'lim oluvchilar, qobiliyat, kreativlik, interfaol metodlar, innovatsiya, ta'lim.*

**Аннотация:** *В данной статье описаны сущность творчества, термин творчество, социальные факторы, влияющие на развитие творческих качеств, активность обучающихся, а также пути и формы формирования критического и творческого мышления у обучающихся, развитие творческих способностей.*

**Ключевые слова:** *Креативность, обучающиеся, способности, креативность, интерактивные методы, инновации, образование.*

**Abstract:** *This article describes the essence of creativity, the term creativity, social factors that affect the development of creativity qualities, the activity of learners, in addition, the ways and forms of forming critical and creative thinking in learners, and the development of creativity.*

**Key words:** *Creativity, learners, ability, creativity, interactive methods, innovation, education.*

### KRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari hamda interfaol usullarni o'jarayonida qo'llash bo'lgan qiziqi kundan kunga ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalaninsh esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil fikirlash va o'rganish hamda tahlil qilish, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatish.

Asosiy qism: Bugungi zamonaviy dunyoning innovatsiyasiga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va ularni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, jarayonlarda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish ta'lim beruvchi pedagogning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. "Kreativlik" tushunchasini quidagicha sharhlash mumkin: "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create " – yaratish, "creative" –

yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifatini va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tadbiiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik mohiyati shundan iboratki – intellect insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik anashu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Mutaxassislar ta'kidicha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Talabalarning ijodiy faoliyat tajribasini egallashiga yo'naltirilgan ta'lim metodlari mazmunini ishlab chiqish, bu quyidagi elementlarni qamrab oladi: tushunish, hodisalarning yashirin mexanizmlarini anglab yetish, ularning sababoqibatli aloqadorligi, mazkur hodisalarning rivojlanish tarzini oldindan ko'ra bilish qobiliyati sifatida; dalillarni anglab yetish va tahlil yetishda muammoni aniqlash va qo'yish qobiliyati; olingan bilimlarni tadqiqotchilik va konstruktorlik vazifalariga unumdor ko'chira olish; obrazli, belgili,

mazmunli analogiyalar asosida tadqiqotchilik va konstruktorlik vazifalarini yechish; obrazlar va g'oyalarni o'zgartirish, ularning interpretatsiyasi.

2. Talabalarining o'quv faoliyatlarida metodologiya va o'quv fanini hamda uning metodlarini kuchaytirish. 3. Ilmiy bilimlarni ijodiy qo'llash va talabalarining ijodiy faolliklarini rivojlantirish uchun asos sifatida texnik modellashtirishdan foydalanish.

4. Ta'limda yakuniy natijani ko'zlash, nafaqat matnli vazifalarning murakkablik darajasi bilan, balki predmet mazmunining hajmi, ijodiy faoliyat tajribasining davomiyligi bilan ham belgilanadi.

Talabalarni vazifani yoki matnni yodda saqlab qolish va aytib bera olish, andozaviy vazifalarni yechish kabilar bilan bog'liq bo'lgan sodda ishlardan ijodiy faoliyat elementlari va mustaqil qaror qabul qilishni talab etuvchi vazifalarga jalb etish.

Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin. Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug'ilganda kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo'lga yo'naltirish va rivojlantirish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Demak, maktabda ta'limning barcha turlarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, kreativlik quyidagilarni qamrab oladi:

1. Ijodiy faoliyatga qaratilgan intellektual faoliyatni borligi, yangiliklarga qaratilgan g'oyalarni yaratishga imkon beradi (konsepsiyaning tor ma'nosida ijodkorlik qobiliyati), shuningdek, ushbu yangi g'oyalarni yaratish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning mavjudligi.

2. Tasodifiy g'oyalarni bera olishdan qo'rqmaslik, taxmin qilingan chegaradan chiqa olish, noaniq vaziyatlarda samarali faoliyat yurita olishga imkoniyat beradigan shaxsiy sifatlarni mavjudligi.

3. Metaijodkorlik – bu insonning hayotdagi mavqeini ifodalovchi fikrlar bo'lib, asosan qoliplar, stereotipli hukmlar va harakatlardan voz kechishni anglatadi. Yangi narsalarni idrok etish va yaratish istagi, o'zingizni va atrofdagi dunyoni o'lchash, erkinlik, faoliyat va rivojlanishning yuqori qiymati.

Umuman olganda, kreativlik (ijodkorlik)ni insonga yangilik, noaniqlik, uzatilayotgan axborot ma'lumotlarning to'liqsizligi va muammolarni hal qilishning aniq algoritmi bo'lmagan holatlarda samarali ishlashga imkon beradigan intellektual va shaxsiy xususiyatlar majmuasi sifatida ta'riflash mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib atganda bugungi ta'lim muhitida, ta'limda kreativ fikrlash va zamonaviy zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitilgan ta'lim an'anaviy talimdan tubdan farq qiladi. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga bog'liq islohotlarni olib borilishi zamonaviy ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlarga yaqqol misol bo'ladi. STEAM ta'limi asosida dars jarayonlarini tashkil qilinishi esa kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirish

uchun eng yaxshi usul hisoblanadi. Shu boisdan ham yurtboshimiz tomonidan yurtimizdagi dfeyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, umumta'lim maktablarida, Oliy ta'lim muassasalarida STEAM ta'limga o'tqazish harakatlari olib borilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://azkurs.org>
  2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ–4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
  3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -Т.: 2017, 39 b.
  4. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.
  5. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.
  6. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.
  7. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
  8. Мамаджонов, Р. (2023). “VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O 'RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).
  9. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.
  10. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.
- MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg ‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg ‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi OA Tursunov–Farg ‘ona politexnika instituti akademik litsey o‘quvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.